



# KAPITALBANK

AKTSIYADORLIK TIJORAT BANKI  
“KAPITALBANK”

2018 yil 31 dekabrda tugagan yil uchun konsolidatsiyalangan  
moliyaviy hisobot  
va mustaqil auditorlarning auditorlik xulosasi



# MUSTAQIL AUDITORLARNING AUDITORLIK XULOSASI

## **“Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki Aksiyadorlariga va Kengashiga**

### **Fikr**

Biz “Kapitalbank” Aksiyadorlik tijorat bankining (keyingi o’rinlarda – “Bank”) va uning sho’ba tashkilotlarining (keyingi o’rinlarda – “Guruh”) 2018 yil 31 dekabr holatiga moliyaviy holat to’g’risidagi konsolidatsiyalangan hisobotni, ko’rsatilgan sanada tugagan yil uchun foyda yoki zarar hamda boshqa yalpi daromad, kapitaldagi o’zgarishlar va pul mablag’larining harakati to’g’risidagi konsolidatsiyalangan hisobotlarni, shuningdek hisob siyosatining asosiy qoidalari va boshqa tushuntiruvchi axborotlardan iborat izohlarni o’z ichiga olgan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarning auditini amalga oshirdik.

Bizning fikrimizga ko’ra, ilova qilingan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar Guruhning 2018 yil 31 dekabr holatiga bo’lgan konsolidatsiyalangan moliyaviy holatining barcha muhim jihatlarini, hamda ko’rsatilgan sanada tugagan yil uchun uning konsolidatsiyalangan moliyaviy natijalarini va pul mablag’larining konsolidatsiyalangan harakatini Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq haqqoniy ravishda aks ettiradi.

### **Fikrni bildirish uchun asoslar**

Biz auditni Xalqaro audit standartlariga muvofiq amalga oshirdik. Bizning ushbu standartlarga muvofiq javobgarligimiz xulosamizning “Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarning audit” bo’yicha auditorlarning javobgarligi” bo’limida ta’riflangan. Biz, O’zbekiston Respublikasida bizning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar auditimizga nisbatan qo’llanadigan mustaqillik talablariga, va Buxgalterlar uchun xalqaro etika standartlari bo’yicha Kengashning Professional buxgalterlar etikasi kodeksiga (BXESK kodeksi) muvofiq Guruhga nisbatan mustaqilmiz, va biz boshqa ahloqiy majburiyatlarimizni ushbu talablarga va BXESK kodeksiga muvofiq bajardik. Biz tomonimizdan olingan auditorlik dalillari fikrimizni bildirish uchun asos bo’lib xizmat qilishi uchun yetarli va tegishli bo’lib hisoblanadi deb o’ylaymiz.

Auditdan o’tayotgan shaxs: “Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki.

O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 07.04.2001 yilda 69-son raqam bilan ro’yxatga olingan.

O’zbekiston Respublikasi Toshkent shahri.

«KPMG Audit» MCHJ AT, O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ro’yxatga olingan kompaniya, SHveysariya qonunchiligiga muvofiq ro’yxatga olingan KPMG International Cooperative (“KPMG International”) assotsiatsiyasiga kiruvchi KPMG mustaqil firmalar tarmog’i a’zosi.



*ATB “Kapitalbank”  
Mustaqil auditorlarning auditorlik xulosasi  
I-bet*

## Auditning muhim masalalari

Auditning muhim masalalari – bu bizning professional fikrimizga binoan joriy davr uchun bizning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar auditimiz uchun eng muhim deb hisoblangan masalalardir. Ushbu masalalar bizning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar auditimiz borasida yaxlit holda va ushbu hisobotlar to'g'risidagi fikrimizni shakllantirishda ko'rib chiqildi, va biz ushbu masalalar bo'yicha alohida fikr bildirmaymiz.

<b>Mijozlarga berilgan kreditlar bo'yicha kutilayotgan kredit zararlari ("KKZ")ni baholash</b>	
Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarga 5, 9-Izohlarga qarang.	
<b>Auditning muhim masalasi</b>	<b>Auditning muhim masalasi yuzasidan auditorlik tartib-taomillari</b>
Mijozlarga berilgan kreditlar aktivlarning 51 %ni tashkil qiladi va kutilayotgan kredit zararlari (keyingi o'rinda - "KKZ") bo'yicha muntazam ravishda baholanadigan hamda ishlataladigan taxminlarga sezuvchan bo'lgan zaxirani chegirgan holda aks ettiriladi	Biz KKZni, uning MHXS (IFRS) 9 talablariga muvofiqligi yuzasidan baholash bo'yicha Guruhning metodologiyasi va siyosatlarining asosiy jihatlarini, shu jumladan tahlilga moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish sohasidagi mutaxassislarni jaib qilish yo'li bilan tahlil qildik.
Guruh 2018 yil 1 yanvardan KKZni baholashning yangi modeliga o'tdi, ushbu model rahbariyatdan professional mulohazakorlikni qo'llashni va quyidagi asosiy sohalarda taxminlar qilishni talab qildi:	KKZ uchun zaxirani hisoblashda rahbariyat tomonidan qo'llangan professional mulohazakorlik va qilingan taxminlarning to'g'riligini tahlil qilish uchun biz jumladan quyidagi auditorlik tartib-taomillarni bajardik:
- mijozlarning kreditlari bo'yicha defolt hodisasini hamda kredit tavakkalchiligining jiddiy ortishini o'z vaqtida aniqlash (MHXS (IFRS) 9 ga muvofiq 1, 2 va 3 Bosqichlarga kiritish);	- Kreditlarni Kredit tavakkalchiligi bosqichiga o'z vaqtida kiritish bo'yicha ichki nazoratlarning tashkil qilinishi va operatsion samaradorligi tekshiruvdan o'tkazildi; - KKZ bahosini salohiyatli o'zgarishi konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kreditlar tanlanmasi bo'yicha biz, tanlab olingen qarz oluvchilar bo'yicha moliyaviy va nomoliyaviy axborotlarni tahlil qilish yo'li bilan Guruh tomonidan berilgan Bosqichning, shuningdek Guruh tomonidan qo'llangan professional mulohazalar va taxminlarning to'g'riligini tekshirdik.



*ATB "Kapitalbank"  
Mustaqil auditorlarning auditorlik xulosasi  
2-bet*

<p>- defolt ehtimolini (PD) va defolt holatida zarar miqdorini (LGD) baholash;</p>	<p>- Guruh KKZni o'z reyting modeli yordamida baholaydigan, yirik korporativ qarz oluvchilarga berilgan kreditlar bo'yicha, biz KKZning yakuniy miqdorining umumiy to'g'rilingini, agentliklarning mustaqil reytinglarining kredit reytinglarini hamda kompaniyalarning moliyaviy holatlari va defoltlari to'g'risidagi ommabop axborotlardan foydalangan holda qurilgan o'z KKZ modelini tahlil qilish yo'li bilan baholadik.</p> <p>- 1 va 2 Bosqichlarga kiritilgan mijozlarga berilgan, Guruh KKZni jamoaviy asosda baholaydigan kreditlar bo'yicha, biz tegishli modellarning ishslash prinsiplarini tekshirdik, shuningdek, tanlanma asosda modellarning boshlang'ich ma'lumotlarini birlamchi hujjatlar bilan taqqosladi.</p>
<p>- 3-Bosqichga kiritilgan mijozlarga berilgan kreditlar bo'yicha kutilayotgan oqimlarni prognoz qilish.</p> <p>Ushbu masala mijozlarga berilgan kreditlarning katta hajmi, KKZning yangi modeliga o'tish, shuningdek, KKZ uchun zaxira kattaligini baholashga aloqador noaniqlik tufayli auditning muhim masalasi hisoblanadi.</p>	<p>- KKZ uchun zaxiralar yakka tartibda baholanadigan, tanlab olingen 3-Bosqichga kiritilgan kreditlar uchun, biz Guruh tomonidan bo'lg'usi pul oqimlarini hisoblashda qo'llanadigan taxminlarni, amalga oshiriladigan garovlar qiymatini hamda ularni amalga oshirish muddatlarini baholashni qo'shgan va bizning tushunchamizdan hamda erkin olinadigan bozor axborotidan kelib chiqqan holda tanqidiy baholadik. Biz konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotga eng ko'p salohiyatli ta'sir ko'rsata oladigan mijozlarga berilgan kreditlarga alohida e'tibor qaratdik. Biz, KKZni hisoblash uchun Guruh tomonidan qo'llanayotgan modellarning umumiy oldindan ayтиб berish qobiliyatini baholadik.</p> <p>Biz shuningdek, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotdagи ochib berishlar guruhning kredit tavakkalchiligiga moyillagini to'g'ri aks ettirishiga ishonch hosil qildik.</p>

<b>Mijozlarga berilgan kreditlar bo'yicha kutilayotgan kredit zararlari ("KKZ")ni baholash</b>	
Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarga 5, 9-Izohlarga qarang.	
Auditning muhim masalasi	Auditning muhim masalasi yuzasidan auditorlik tartib-taomillari
Mijozlarga berilgan kreditlar aktivlarning 51 %ni tashkil qiladi va kutilayotgan kredit zararlari (keyingi o'rinda - "KKZ") bo'yicha muntazam ravishda baholanadigan hamda ishlatalidigan taxminlarga sezuvchan bo'lgan zaxirani chegirgan holda aks ettiriladi	Biz KKZni, uning MHXS (IFRS) 9 talablariga muvofiqligi yuzasidan baholash bo'yicha Guruhning metodologiyasi va siyosatlarining asosiy jihatlarini, shu jumladan tahlilga moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish sohasidagi mutaxassislarni jalb qilish yo'li bilan tahlil qildik.

<p>Guruh 2018 yil 1 yanvardan KKZni baholashning yangi modeliga o'tdi, ushbu model rahbariyatdan professional mulohazakorlikni qo'llashni va quyidagi asosiy sohalarda taxminlar qilishni talab qildi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mijozlarning kreditlari bo'yicha defolt hodisasini hamda kredit tavakkalchiligining jiddiy ortishini o'z vaqtida aniqlash (MHXS (IFRS) 9 ga muvofiq 1, 2 va 3 Bosqichlarga kiritish);</li> </ul>	<p>KKZ uchun zaxirani hisoblashda rahbariyat tomonidan qo'llangan professional mulohazakorlik va qilingan taxminlarning to'g'rilingini tahlil qilish uchun biz jumladan quyidagi auditorlik tartib-taomillarni bajardik:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Kreditlarni Kredit tavakkalchiligi bosqichiga o'z vaqtida kiritish bo'yicha ichki nazoratlarning tashkil qilinishi va operatsion samaradorligi tekshiruvdan o'tkazildi;</li> <li>- KKZ bahosini salohiyatli o'zgarishi konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kreditlar tanlanmasi bo'yicha biz, tanlab olingan qarz oluvchilar bo'yicha moliyaviy va nomoliyaviy axborotlarni tahlil qilish yo'li bilan Guruh tomonidan berilgan Bosqichning, shuningdek Guruh tomonidan qo'llangan professional mulohazalar va taxminlarning to'g'rilingini tekshirdik.</li> </ul>
--	---

#### **MHXS (IFRS) 9 "Moliyaviy instrumentlar"ga o'tish**

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarga 4-Izohga qarang.

<b>Auditning muhim masalasi</b>	<b>Auditning muhim masalasi yuzasidan auditorlik tartib-taomillari</b>
<p>Guruhning asosiy faoliyati moliyaviy instrumentlar bilan operatsiyalar bilan bog'liq, bunda moliyaviy aktivlar Guruh aktivlarining katta qismini tashkil qildi.</p> <p>2018 yil 1 yanvardan Guruh moliyaviy instrumentlar hisobining yangi standartiga, MHXS (IFRS) 9 ga o'tdi, ushbu standart moliyaviy aktivlar tasnifi va hisobini ko'p darajada o'zgartirdi.</p> <p>Ushbu masala, moliyaviy instrumentlar hisobining amaldagi tartibini jiddiy o'zgartiruvchi yangi talablarning kuchga kirishi, shuningdek yangi standartning Guruhning moliyaviy ahvoli va faoliyat natijalariga kuchli ta'sir etishi sababli auditning muhim masalasi hisoblanadi.</p>	<p>Biz biznes-modellarning ta'riflarini tahlil qildik, Guruh ularning doirasida mas'ul xodimlarga talab qo'yish, Guruhning ichki hujjatlarini o'rganish va tanlab olingan yirik moliyaviy instrumentlar portfellari bo'yicha ichki biznes-jarayonlarni tahlil qilish yo'li bilan moliyaviy aktivlarni saqlab qoladi.</p> <p>Biz, shartnomada nazarda tutilgan pul oqimlari faqat asosiy summa va foizlar to'lovi ekanligi yuzasidan Guruh tomonidan o'tkazilgan baholashning to'g'rilingini, tanlab olingan moliyaviy instrumentlarga tegishli birlamchi hujjatlar va shartnoma shartlarini tahlil qilish yo'li bilan tekshirdik.</p> <p>Biz, shuningdek, Guruh mijozlarga berilgan kreditlar bo'yicha shartlarning jiddiy o'zgarishlarini noto'g'ri aniqlaganligi va hisobda aks ettirganligini Guruh tomonidan kreditlar bo'yicha shartlarni qayta ko'rib chiqishning asosiy yo'naliшlarini umumiylah qilish hamda mijozlarga berilgan tanlab olingan kreditlar bo'yicha birlamchi hujjatlarini tahlil qilish yo'li bilan tekshirdik.</p> <p>Biz, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotdagi ochib berishlar moliyaviy instrumentlarning tasnifi va hisobi yuzasidan eng muhim jihatlarni to'g'ri yoritishiga, shuningdek Guruhning MHXS (IFRS) 9 ga o'tish samaralarini aks ettirishiga ham ishonch hosil qildik.</p>



*ATB "Kapitalbank"  
Mustaqil auditorlarning auditorlik xulosasi  
4-bet*

## Boshqa ma'lumotlar

Guruhning 2017 yil 31 dekabr holatiga va ko'rsatilgan sanada tugagan yil uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning auditni boshqa auditorlar tomonidan o'tkazilgan bo'lib, ularning 2018 yil 30 apreldagi xulosasi o'sha hisobotlar to'g'risidagi o'zgartirilmagan fikrni o'z ichiga olgan.

### Rahbariyat va korporativ boshqaruv uchun, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot uchun mas'ul shaxslarning javobgarligi

Rahbariyat ko'rsatilgan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni MHXSga muvofiq tayyorlanishi va ishonchli taqdim etilishi uchun hamda rahbariyat tomonidan insofsiz harakatlar yoki xatolar natijasida jiddiy buzilishlarga yo'l qo'yilmagan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tayyorlash uchun zaruriy deb hisoblangan ichki nazorat tizimi uchun javobgarlikka ega.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tayyorlashda rahbariyat guruhning o'z faoliyatini uzlusiz davom ettirish qobiliyatini baholash uchun, tegishli holatlarda faoliyatning uzlusizligiga aloqador ma'lumotlarni olib berish uchun, hisobotlarni faoliyatning uzlusizligi to'g'risidagi taxmin asosida tuzish uchun javobgarlikka ega, rahbariyat Guruhnini tugatishni, uning faoliyatini to'xtatishni ko'zlayotgan yoki unda tugatish yohud faoliyatni to'xtatishdan tashqari biror-bir real muqobillik bo'lмаган holatlar bundan mustasno.

Korporativ boshqaruv uchun mas'ul shaxslar Guruhning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tayyorlash ustidan nazorat uchun javobgarlikka ega.

### Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning auditni uchun auditorlarning javobgarligi

Bizning maqsadimiz konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot insofsiz harakatlar yoki xatolar natijasida jiddiy buzilishlarga yo'l qo'yishdan xoli ekanligiga oqilona ishonch hosil qilishdan, va bizning fikrimizni o'z ichiga olgan auditorlik xulosasini chiqarishdan iborat. Oqilona ishonch yuqori darajadagi ishonchni bildiradi, biroq Xalqaro audit standartlariga muvofiq o'tkazilgan audit, jiddiy buzilishlar mavjud bo'lгanda, doim ularni aniqlanishiga kafolat bo'lib hisoblanmaydi. Buzilishlar insofsiz harakatlar yoki xatolarning natijasi bo'lishi mumkin va, agar ular alohida yoki birgalikda foydalanuvchilarning ushbu konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot asosida qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlariga ta'sir etishi mumkinligini asosli taxmin qilish mumkin bo'lsa jiddiy hisoblanadi.

Xalqaro audit standartlariga muvofiq o'tkaziladigan audit doirasida biz butun audit davomida professional mulohazakorlikni qo'llaymiz va professional skeptitsizmni saqlab qolamiz. Bundan tashqari biz quyidagilarni bajaramiz:

- insofsiz harakatlar yoki xatolar natijasida konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotda jiddiy buzilishlarga yo'l qo'yish tavakkalchiligidini aniqlaymiz va baholaymiz; ushbu tavakkalchiliklarga javoban auditorlik tartib-taomillarini ishlab chiqamiz va olib boramiz; fikrimizni ifodalash uchun asos bo'lib xizmat qilish uchun yetarli va tegishli bo'lган auditorlik dalillarni olamiz. Insofsiz harakatlar natijasida jiddiy buzilishlarning



*ATB “Kapitalbank”  
Mustaqil auditorlarning auditorlik xulosasi  
5-bet*

aniqlanmaslik xavfi xato natijasida jiddiy buzilishlarni aniqlanmaslik xavfiga qaraganda yuqori, chunki insofsiz harakatlar til biriktirish, axborotlarni qalbakilashtirish, qasddan o'tkazib yuborish, buzilgan holda taqdim etish yoki ichki nazorat tizimini chetlab o'tish harakatlarini o'z ichiga olish mumkin;

- vaziyatlarga mos keluvchi auditorlik tartib-taomillarni ishlab chiqish maqsadida, biroq Guruh ichki nazorat tizimining samaradorligi to'g'risidagi fikrni ifodalash maqsadida emas, audit uchun ahamiyatli bo'lgan ichki nazorat tizimini tushunib olamiz;
- qo'llanayotgan hisob siyosatining tegishli tavsifini va buxgalterlik baholarning asoslanganligini hamda rahbariyat tomonidan tayyorlangan axborotning tegishli ochib berilishini baholaymiz;
- rahbariyat tomonidan faoliyatning uzlusizligi to'g'risidagi taxminni qo'llashning qonuniyligi to'g'risida xulosa, olingan auditorlik dalillari asosida esa – ularning natijasida Guruhning o'z faoliyatini uzlusiz davom ettira olishiga jiddiy shubhalar tug'ilishi mumkin bo'lgan hodisalar yoki shartlar tufayli jiddiy noaniqlik mavjudligi to'g'risidagi xulosani chiqaramiz. Agar biz jiddiy noaniqlik mavjud degan xulosaga kelsak, biz o'z auditorlik xulosamizda e'tiborni konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotda axborotni tegishlichcha ochib berishga jalb qilishimiz zarur, yoki axborotni bunday ochib berish tegishlichcha bo'lmasa, o'z fikrimizni o'zgartirishimiz zarur. Bizning xulosalarimiz auditorlik xulosamizning sanasidan avval olingan auditorlik dalillariga asoslangan. Biroq, kelgusi hodisalar yoki shartlar Guruh o'z faoliyatini uzlusiz davom ettirish qobiliyatini yo'qotishiga olib kelishi mumkin.
- konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni yaxlit, uning tuzilishi va mazmuni taqdim etilishini, axborotni ochib berishni qo'shgan holda, shuningdek konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot, uning asosida yotgan operatsiyalar va hodisalarni, ularning haqqoniy taqdim etilishini ta'minlaydigan darajada ifodalashini baholaymiz.
- konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot to'g'risidagi fikrni ifodalash uchun Guruh ichidagi faoliyatga yoki tarkibidagi tashkilotlarning moliyaviy axborotiga aloqador yetarlicha tegishli auditorlik dalillarni olamiz. Biz Guruh auditiga rahbarlik qilish, uni nazorat qilish va o'tkazish uchun javob beramiz. Biz o'z auditorlik fikrimiz uchun to'liq javobgar bo'lib qolamiz.

Biz korporativ boshqaruv uchun mas'ul shaxslar bilan, ularga boshqa ishlardan tashqari auditning rejalashtirilgan hajmi va muddatlari, shuningdek audit natijalari bo'yicha jiddiy mulohazalar, shu jumladan audit jarayonida biz aniqlagan ichki nazorat tizimidagi jiddiy kamchiliklar to'g'risidagi axborotni yetkazgan holda o'zaro axborot hamkorligini amalga oshiramiz.

Biz shuningdek, korporativ boshqaruv uchun mas'ul shaxslarga, biz tomonimizdan mustaqillikka oid barcha kerakli ahloqiy talablarga rioya etilganligi to'g'risida hamda ushbu shaxslar, auditorlarning mustaqilligiga ta'sir ko'rsatuvchi deb asosli hisoblash mumkin bo'lgan barcha o'zaro munosabatlar va boshqa masalalar, zarur hollarda esa – tegishli ehtiyyotkorlik choralarini to'g'risida xabardor etilganligi to'g'risida bayonot beramiz.

Biz, korporativ boshqaruv uchun mas'ul shaxslarga yetkazilgan masalalar orasida joriy davr uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot auditni uchun eng ahamiyatli bo'lgan, va demak



*ATB "Kapitalbank"  
Mustaqil auditorlarning auditorlik xulosasi  
6-bet*

auditning muhim masalalari hisoblangan masalalarni aniqlaymiz. Biz o'z auditorlik xulosamizda ushbu masalalarni, ushbu masalalar to'g'risidagi axborotni ommaviy yoritish qonun yoki me'yoriy hujjat bilan taqiqlangan yohud juda kam hollarda biron-bir masala to'g'risidagi axborot bizning xulosamizda ma'lum qilinmasligi kerak bo'lgan, chunki bunday axborotni ma'lum qilishning salbiy oqibatlari uni ma'lum qilishning ijtimoiy muhim foydasidan kattaroq bo'ladi degan xulosaga kelgan holatlardan tashqari ravishda yoritamiz.

Mustaqil auditorlarning ushbu auditorlik xulosasi chiqrilishiga asos bo'lib xizmat qilgan topshiriq rahbari:

**Saidov S.K.**  
**Loyiha bo'yicha direktor**  
**«KPMG Audit» MCHJ AT**  
**Bosh direktori**

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2019 yil 1 fevralda berilgan 16/3-sonli Banklarning auditorlik tekshiruvini o'tkazish huquqi uchun Auditorning malaka sertifikati

2019 yil 21 iyun

**Kuznetsov A.A.**  
**Loyiha bo'yicha hamkor**

**«KPMG Audit» MCHJ AT**  
O'zbekiston, Toshkent sh.

# Moliyaviy holat to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot

2018 yil 31  
dekabr  
qayta ko'rib  
chiqilgan  
ma'lumotlar\*

(ming UZSda)	Izoh		
<b>AKTIVLAR</b>			
Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari	7	1 201 895 276	930 835 594
Kredit tashkilotlaridagi mablag'lar	8	581 842 163	204 261 814
Mijozlar uchun kreditlar	9	2 432 796 104	1 612 868 781
Sotish uchun mo'ljallangan aktivlar	10	16 545 376	4 203 509
Investitsion moliyaviy aktivlar		70 220	2 696 753
Asosiy vositalar	11	475 968 141	458 203 449
Foya solig'i bo'yicha oldindan to'lov		4 062 984	-
Nomoddiy aktivlar	11	8 655 917	1 944 857
Kechiktirilgan soliq aktivlari	24	12 066 261	8 899 572
Boshqa aktivlar	12	74 105 867	445 015 893
<b>JAMI AKTIVLAR</b>		<b>4 808 008 309</b>	<b>3 668 930 222</b>
<b>MAJBURIYATLAR</b>			
Kredit tashkilotlari mablag'lari	13	165 602 798	258 880 240
Mijozlar mablag'lari	14	4 173 922 094	3 051 461 993
Chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlar	15	4 620 000	2 070 575
Moliyaviy lizing bo'yicha majburiyatlar	16	5 739 913	-
Boshqa qarz mablag'lari	17	54 897 960	15 363 435
Boshqa majburiyatlar	18	5 851 124	10 413 436
<b>JAMI MAJBURIYATLAR</b>		<b>4 410 633 619</b>	<b>2 411 676 977</b>
<b>KAPITAL</b>			
Aksiyadorlik kapitali	19	104 363 852	80 331 797
Qo'shimcha kapital		350 000	350 000
Asosiy vositalarni qayta baholash fondi		1 924 529	112 795 731
Taqsimlanmagan foya		290 736 309	137 263 015
<b>JAMI KAPITAL</b>		<b>397 374 691</b>	<b>330 740 543</b>
<b>JAMI MAJBURIYATLAR VA KAPITAL</b>		<b>4 808 008 309</b>	<b>3 668 930 222</b>

\*Guruh 2018 yil 1 yanvardan MHXS (IFRS) 9 ni qo'llashni boshladi. MHXS (IFRS) 9 ni qo'llash natijasida Guruh muayyan moddalarni taqdim etish tartibini o'zgartirdi, qiyosiy ma'lumotlarni taqdim etish ham tegishli ravishda o'zgartirildi (5-Izohga qarang).

Guruh rahbariyati nomidan tasdiqlangan va imzolangan:

Xalbekov N.N.

Tyan YE.B.

m.o'.

Bank Boshqaruv Raisi v.v.b.

Bank Bosh Hisobchisi v.v.b.

2019 yil 21 iyun

*Illova qilingan izohlar ushbu konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning ajralmas qismi hisoblanadi.*

## Foyda yoki zarar va boshqa yalpi daromad to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot

<i>(ming UZSda)</i>	<i>Izoh</i>	2018 yil	2017 yil qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlar*
		2018 yil	2017 yil qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlar*
Samarali foiz stavka usuli yordamida hisoblangan foizli daromadlar	20	277 248 812	229 957 361
Boshqa foizli daromadlar	20	10 332 496	19 314 979
Foizli xarajatlar	20	(156 338 397)	(95 958 341)
<b>Sof foizli daromadlar</b>		<b>131 242 911</b>	<b>153 313 999</b>
Mijozlarga berilgan kreditlar, banklardagi depozitlar hamda pul mablahlari va ularning ekvivalentlari bo'yicha kutilayotgan kredit zararlari uchun shakllantirilgan zahiralar	7, 8, 9	(25 264 176)	(25 649 786)
<b>Foizlar hisoblanadigan aktivlarning kutilayotgan kredit zararlari uchun zaxiralar shakllantirilgandar so'ng sof foizli daromadlar</b>		<b>105 978 735</b>	<b>64 213</b>
Komission daromadlar	21	215 445 727	164 641 613
Komission xarajatlar	21	(39 071 940)	(28 373 786)
Chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo'yicha xarajatlar chegirilgandan so'ng sof daromadlar	22	18 880 538	(52 313 546)
Boshqa moliyaviy aktivlarning qadrsizlanishi va va kredit xarakteridagi shartli majburiyatlardan zararlar va boshqa zahiralar		(1 414 565)	(7 488 780)
Kreditlarning dastlabki e'tirofidan zarar		-	(9 432 133)
Boshqa daromadlar	-	12 026 103	18 699 972
Boshqa xarajatlar		-	(9 047)
Xodimlar uchun xarajatlarva boshqa operatsion xarajatlar	23	(198 954 785)	(175 261 110)
SHO"ba kompaniyalarning chiqib ketishidan sof zarar		(4 177 956)	-
<b>Foyda solig'i uchun xarajatlardan oldin foyda</b>		<b>108 711 857</b>	<b>38 127 396</b>
Foyda solig'i uchun xarajatlar	24	(44 452 582)	(18 831 595)
<b>DAVR UCHUN SOF FOYDA</b>		<b>64 259 275</b>	<b>19 295 801</b>
Davom etayotgan faoliyatdan olingan sof foyda		65 628 923	18 270 396
To'xtatilgan faoliyatdan olingan sof foyda (zarar)		(1 359 648)	1 025 405
<b>Boshqa yalpi daromad</b>			
Binolarni qayta baholash		-	75 395 711
<b>Soliq solinganidan so'ng boshqa yalpi daromad</b>		-	75 395 711
<b>Jami davr uchun yalpi daromad</b>		<b>64 259 275</b>	<b>94 691 512</b>

\*Guruh 2018 yil 1 yanvardan MHXS (IFRS) 9 ni qo'llashni boshladi. MHXS (IFRS) 9 ni qo'llash natijasida Guruh muayyan moddalarni taqdim etish tartibini o'zgartirdi, qiyosiy ma'lumotlarni taqdim etish ham tegishli ravishda o'zgartirildi (5-Izohga qarang).

Guruh rahbariyati nomidan tasdiqlangan va imzolangan:

Xalbekov N.N.

Tyan YE.B.

Bank Boshqaruv Raisi v.v.b.

m.o'

Bank Bosh Hisobchisi v.v.b.

2019 yil 21 iyun

## Kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot

	Aksiyadorlik kapitali	Qo'shimcha kapital	Asosiy vositalarni qayta baholash fondi	Taqsimlanmagan foyda	Jami kapital
<i>(ming UZSda)</i>					
<b>2017 yil 1 yanvar holatiga qoldiq</b>	<b>80 331 797</b>	<b>350 000</b>	<b>37 400 020</b>	<b>117 967 214</b>	<b>236 049 031</b>
Davr uchun sof foyda	-	-	-	19 295 801	19 295 801
Boshqa yalpi daromad	-	-	75 395 711	-	75 395 711
Binolar amortizatsiyasini ko'chirish	-	-	-	-	-
Asosiy vositalarni qayta baholash fondini ko'chirish	-	-	-	-	-
Sho'ba kompaniyalarning chiqib ketishi	-	-	-	-	-
<b>2017 yil 31 dekabr holatiga ko'ra qoldiq</b>	<b>80 331 797</b>	<b>350 000</b>	<b>112 795 731</b>	<b>137 263 015</b>	<b>330 740 543</b>
2018 yil 1 yanvar holatiga MHXS 9 qo'llash samarasi (5-Izoh)	-	-	-	(2 325 146)	(2 325 146)
<b>2018 yil 1 yanvar holatiga qayta hisoblangan qoldiq</b>	<b>80 331 797</b>	<b>350 000</b>	<b>112 795 731</b>	<b>134 937 869</b>	<b>328 415 397</b>
Davr uchun sof foyda	-	-	-	64 259 275	64 259 275
Dividendlarni to'lash	-	-	-	(9 720 031)	(9 720 031)
Aksiyalar emissiyasi	9 612 005	-	-	(9 612 005)	-
Imtiyozli aksiyalarni oddiy aksiyalarga konvertatsiya qilish	14 420 050	-	-	-	14 420 050
Asosiy vositalarni qayta baholash fondini ko'chirish	-	-	(110 871 202)	(110 871 202)	-
Boshqa yalpi daromad	-	-	-	-	-
<b>2018 yil 31 dekabr holatiga ko'ra qoldiq</b>	<b>104 363 852</b>	<b>350 000</b>	<b>1 924 529</b>	<b>290 736 310</b>	<b>397 374 691</b>

\*Guruh 2018 yil 1 yanvardan MHXS (IFRS) 9 ni qo'llashni boshladi. MHXS (IFRS) 9 ni qo'llash natijasida Guruh muayyan moddalarni taqdim etish tartibini o'zgartirdi, qiyosiy ma'lumotlarni taqdim etish ham tegishli ravishda o'zgartirildi (5-Izohga qarang).

Guruh rahbariyati nomidan tasdiqlangan va imzolangan:

Xalbekov N.N.

Tyan YE.B.

Bank Boshqaruv Raisi v.v.b.

m.o'.

Bank Bosh Hisobchisi v.v.b.

2019 yil 21 iyun

*Ilova qilingan izohlar ushbu konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning ajralmas qismi hisoblanadi.*

## Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot

	2018 yil	2017 yil qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlar*
<i>(ming UZSda)</i>		
<b>Operatsion faoliyatdan olingan pul oqimlari</b>		
Olingen foizlar	277 728 521	240 938 648
To'langan foizlar	(156 364 922)	(96 912 256)
Olingen komissiyalar	214 778 580	167 088 607
To'langan komissiyalar	(39 071 940)	(28 373 786)
CHet el valyutasi bilan operatsiyalar bo'yicha sof tushumlar	380 560 391	139 089 159
Boshqa olingen operatsion daromadlar	12 887 711	12 922 293
Xodimlarni saqlash uchun to'langan xarajatlar	(84 666 469)	(70 420 280)
To'langan ma'muriy xarajatlar va boshqa operatsion xarajatlar	(87 898 178)	(83 462 710)
<b>Operatsion aktivlar va majburiyatlardagi o'zgarishlarga qadar operatsion faoliyatdan olingan pul oqimlari</b>	<b>517 953 694</b>	<b>280 869 675</b>
<i>Sof (qo'shimcha o'sish) kamayish, quyidagilar bo'yicha:</i>		
- kredit tashkilotlaridagi mablag'lari	(370 601 483)	220 165 014
- mijozlarga berilgan kreditlar	(839 902 151)	(452 227 280)
- boshqa aktivlar	(23 281 004)	(5 686 659)
<i>Sof qo'shimcha o'sish/(kamayish), quyidagilar bo'yicha:</i>		
- kredit tashkilotlarining mablag'lari	(93 782 138)	102 973 037
- mijozlarning mablag'lari	1 100 437 307	595 043 851
- chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlar	2 850 000	(3 275 206)
- moliyaviy lizing bo'yicha majburiyatlar	-	(19 097 055)
- boshqa majburiyatlar	(3 300 552)	(1 539 472)
<b>Davom etayotgan faoliyat bo'yicha foyda solig'i to'langunga qadar operatsion faoliyatdan olingan sof pul oqimlari</b>	<b>290 373 673</b>	<b>717 225 905</b>
To'langan foyda solig'i	(51 606 787)	(26 243 927)
<b>Davom etayotgan faoliyat bo'yicha operatsion faoliyatdan olingan sof pul oqimlari</b>	<b>238 755 886</b>	<b>690 981 978</b>
<b>To'xtatilgan faoliyat bo'yicha operatsion faoliyatda (qo'llanilgan) olingan sof pul oqimlari</b>	<b>(861 608)</b>	<b>2 140 985</b>
<b>Jami operatsion faoliyatdan olingan sof pul oqimlari</b>	<b>237 905 278</b>	<b>693 122 963</b>
<b>Investitsion faoliyatdan sof pul oqimlari</b>		
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni xarid qilish	(216 898 731)	(186 743 716)
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni sotishdan tushum	168 642 593	2 464 643
CHiqarilgan obligatsiyalarni qoplash	(300 575)	-
Sotish uchun mavjud bo'lgan aktivlarni sotishdan tushum	4 203 509	4 952 096
Investitsion moliyaviy aktivlarni sotishdan tushum	2 626 533	4 715 480
CHiqib ketgan pul mablag'lari chegirilgan holda sho"ba kompaniyaning chiqib ketishidan tushum	21 478 887	2 087 857
<b>Davom etayotgan faoliyatdan olingan investitsion faoliyatda foydalilanigan sof pul oqimlari</b>	<b>(20 247 784)</b>	<b>(172 523 640)</b>
<b>To'xtatilgan faoliyatdan investitsion faoliyatdan olingan (foydalilanigan) sof pul oqimlari</b>	<b>659 078</b>	<b>(2 087 857)</b>
<b>Jami investitsion faoliyatda foydalilanigan sof pul oqimlari</b>	<b>(19 588 706)</b>	<b>(174 611 497)</b>

## Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot (davomi)

<i>(ming UZSda)</i>	<b>2018 yil</b>	<b>2017 yil qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlar*</b>
<b>Moliyaviy faoliyatdan olingan pul oqimlari</b>		
Boshqa qarz vositalari bo'yicha tushumlar	53 919 092	175 383
To'langan dividendlar	(9 720 031)	-
<b>Davom etayotgan faoliyatdan moliyaviy faoliyatdan olingan sof pul oqimlari</b>	<b>44 199 061</b>	<b>175 383</b>
<b>To'xtatilgan faoliyatdan moliyaviy faoliyatdan oligan sof pul oqimlari</b>	-	-
<b>Jami moliyaviy faoliyatdan olingan sof pul oqimlari</b>	<b>44 199 061</b>	<b>175 383</b>
Almashuv kursining pul mablag'lari va ularning ekvivalentlariga ta'siri	8 616 892	(62 586 197)
<b>Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarining sof qo'shimcha o'sishi</b>	<b>271 132 526</b>	<b>456 100 652</b>
Yil boshiga pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari	930 835 594	474 734 942
Kutilayotgan kredit zararlari miqdori o'zgarishlarining pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari miqdoriga ta'siri	(72 844)	-
<b>Yil oxiriga pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari</b>	<b>1 201 895 276</b>	<b>930 835 594</b>

\*Guruh 2018 yil 1 yanvardan MHXS (IFRS) 9 ni qo'llashni boshladi. MHXS (IFRS) 9 ni qo'llash natijasida Guruh muayyan moddalarni taqdim etish tartibini o'zgartirdi, qiyosiy ma'lumotlarni taqdim etish ham tegishli ravishda o'zgartirildi (5-izohga qarang).

Guruh rahbariyati nomidan tasdiqlangan va imzolangan:

Xalbekov N.N.

Tyan YE.B.

Bank Boshqaruv Raisi v.v.b.

m.o'.

Bank Bosh Hisobchisi v.v.b.

2019 yil 21 iyun